

2023- yil yanvar-iyun oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(62) 224-65-09



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **455,2 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **78,6 mln. AQSH** dollariga yoki **20,9 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **455,2** +20,9 %

(2022- y.: 376,6)



### Saldo

2023- y.: - **129,8** (2022 y.: - 122,9)



### Eksport

2023- y.: **162,7** +28,3 %

(2022- y.: 126,8)



Tovarlar: **156,0**



Xizmatlar: **6,7**



### Import

2023- y.: **292,5** +17,1 %

(2022- y.: 249,7)



Tovarlar: **292,5**









**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **162,7** mln. AQSH dollariga (**28,3** % ga ko‘paydi) va import hajmi **292,5** mln. AQSH dollariga (**17,1** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-129,8** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 95,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 95,3</p> <p> 20,9 %</p>	<p><b>Rossiya Federatsiyasi</b></p> <p>TSA – 72,9</p> <p>Eksport : 40,5 Import : 32,4</p> <p> 16,0 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 57,1</p> <p>Eksport : 5,1 Import : 52,0</p> <p> 12,5 %</p>	<p><b>Pokiston</b></p> <p>TSA – 35,2</p> <p>Eksport : 34,9 Import : 0,3</p> <p> 7,7 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 34,1</p> <p>Eksport : 9,0 Import : 25,1</p> <p> 7,5 %</p>
<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 26,2</p> <p>Eksport : 26,0 Import : 0,2</p> <p> 5,7 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 19,6</p> <p>Eksport : 0,5 Import : 19,1</p> <p> 4,3 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 17,1</p> <p>Eksport : 11,0 Import : 6,1</p> <p> 3,8 %</p>	<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 13,3</p> <p>Eksport : 1,4 Import : 11,9</p> <p> 2,9 %</p>	<p><b>Tojikiston</b></p> <p>TSA – 13,3</p> <p>Eksport : 13,3 Import : 0,0</p> <p> 2,9 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **104** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**20,9 %**), Rossiya Federatsiyasi (**16,0 %**), XXR (**12,5 %**), Pokiston (**7,7 %**), Turkiya (**7,5**), Qirg'iz Respublikasi (**5,7 %**) va Germaniyada (**4,3 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **40,8** foizga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



**Pokiston – 34,7**



**Qirg'iz Respublikasi – 25,8**



**Tojikiston – 13,3**















Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlat bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Braziliya</b>	<b>62,0</b>	<b>77,8</b>	<b>95,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	62,0	77,8	95,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>49,1</b>	<b>72,2</b>	<b>72,9</b>
 <i>Eksport</i>	30,0	40,7	40,5
<i>Import</i>	19,1	31,5	32,4
<b>XXR</b>	<b>66,1</b>	<b>53,6</b>	<b>57,1</b>
 <i>Eksport</i>	12,8	5,8	5,1
<i>Import</i>	53,3	47,7	52,0
<b>Pokiston</b>	<b>2,3</b>	<b>3,6</b>	<b>35,2</b>
 <i>Eksport</i>	1,5	3,4	34,9
<i>Import</i>	0,8	0,2	0,3
<b>Turkiya</b>	<b>34,1</b>	<b>78,4</b>	<b>34,1</b>
 <i>Eksport</i>	13,3	18,9	9,0
<i>Import</i>	20,8	59,5	25,1
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>21,1</b>	<b>16,1</b>	<b>26,2</b>
 <i>Eksport</i>	21,1	15,8	26,0
<i>Import</i>	0,0	0,3	0,2
<b>Germaniya</b>	<b>3,6</b>	<b>5,2</b>	<b>19,6</b>
 <i>Eksport</i>	0,2	1,4	0,5
<i>Import</i>	3,4	3,8	19,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>13,6</b>	<b>34,2</b>	<b>17,1</b>
 <i>Eksport</i>	9,5	25,2	11,0
<i>Import</i>	4,1	9,0	6,1
<b>Belarus</b>	<b>1,4</b>	<b>2,2</b>	<b>13,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,5	1,1	1,4
<i>Import</i>	0,9	1,1	11,9
<b>Tojikiston</b>	<b>2,8</b>	<b>1,4</b>	<b>13,3</b>
 <i>Eksport</i>	2,6	1,2	13,3
<i>Import</i>	0,2	0,2	0,0

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Eron</b>	<b>4,2</b>	<b>3,2</b>	<b>11,1</b>
	<i>Eksport</i>	1,6	1,6	5,1
	<i>Import</i>	2,6	1,6	6,0
	<b>Polsha</b>	<b>1,7</b>	<b>3,9</b>	<b>6,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,5	2,7
	<i>Import</i>	1,2	3,4	3,7
	<b>Turkmaniston</b>	<b>6,1</b>	<b>6,0</b>	<b>5,7</b>
	<i>Eksport</i>	3,8	2,6	1,7
	<i>Import</i>	2,3	3,4	4,0
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>15,1</b>	<b>2,1</b>	<b>4,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	0,2	2,4
	<i>Import</i>	14,7	1,9	2,3
	<b>Yaponiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,1</b>	<b>4,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,1	4,7
	<b>Shveysariya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,6</b>	<b>4,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,6	4,6
	<b>BAA</b>	<b>0,5</b>	<b>0,4</b>	<b>4,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,2
	<i>Import</i>	0,0	0,1	4,0
	<b>Litva</b>	<b>1,2</b>	<b>1,7</b>	<b>4,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,9
	<i>Import</i>	1,2	1,7	3,1
	<b>Finlyandiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,0</b>	<b>3,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	3,7
	<b>Belgiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,6</b>	<b>3,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,4	3,6



## XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun)\*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>455,2</b>	<b>120,9</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	76,4	107,6	16,8
Xiva sh.	15,0	106,6	3,3
Bog'ot	19,7	114,7	4,3
Gurlan	17,6	189,4	3,9
Qo'shko'pir	21,1	172,3	4,6
Urganch	27,0	97,4	5,9
Hazorasp	30,3	180,5	6,6
Tuproqqal'a	121,5	136,5	26,7
Xonqa	31,3	143,0	6,9
Xiva	12,4	120,8	2,7
Shovot	36,1	149,5	7,9
Yangiariq	28,8	56,9	6,3
Yangibozor	16,5	155,0	3,6

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 121,5

Urganch sh. 76,4

Shovot 36,1

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Xiva 12,4


Xiva sh. 15,0

Yangibozor 16,5

Wiloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **26,7** % ulush bilan **121,5** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **2,7** % ulush bilan **12,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **32,9** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **26,7** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **67,1** % ni tashkil etdi.



Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, **149,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **94,4** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **55,3** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)


<p><b>Rossiya Federatsiyasi</b></p> <p>TSA – 72,9 Eksport – 40,5 Import – 32,4</p> 	<p><b>Turkmaniston</b></p> <p>TSA – 5,7 Eksport – 1,7 Import – 4,0</p> 
<p><b>Qirg'iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 26,2 Eksport – 26,0 Import – 0,2</p> 	<p><b>Ukraina</b></p> <p>TSA – 0,8 Eksport – 0,2 Import – 0,6</p> 
<p><b>Qozog'iston</b></p> <p>TSA – 17,1 Eksport – 11,0 Import – 6,1</p> 	<p><b>Ozərbayjon</b></p> <p>TSA – 0,3 Eksport – 0,3 Import – 0,0</p> 
<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 13,3 Eksport – 1,4 Import – 11,9</p> 	<p><b>Moldova Respublikasi</b></p> <p>TSA – 0,2 Eksport – 0,2 Import – 0,0</p> 
<p><b>Tojikiston</b></p> <p>TSA – 13,3 Eksport – 13,3 Import – 0,0</p> 	<p><b>Armaniston</b></p> <p>TSA – 0,05 Eksport – 0,05 Import – 0,0</p> 




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**48,7 %**), Qirg'iz Respublikasi (**17,5 %**) hamda Qozog'iston (**11,5 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, %da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **129,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **78,8** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **50,7** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **126** taga yetdi va ular tomonidan **162,7** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **28,3** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>126,8</b>	<b>162,7</b>	<b>119,4</b>	<b>128,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,4	64,2	124,3	167,1	30,3	39,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,7	-	282,6 m.	-	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	2,3	59,7	99,4	1,8	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,9	1,7	47,8 m.	88,7	1,5	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-	19,1 m.	-	1,0	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,4	1,3	85,1	3,2 m.	0,3	0,8
Sanoat tovarlari	59,4	62,7	106,8	105,7	46,8	38,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	0,4	58,3	2,6 m.	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	14,2	22,8	174,8	160,7	11,2	14,0
Xizmatlar	8,8	6,7	127,1	76,0	7,0	4,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **95,9 %**ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**39,4%**), sanoat tovarlari (**38,5 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**14,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	57129,5	151,8
Don mahsulotlari	6613,0	570,7 m.
Turli xil ovqatlar va preparatlar	140,3	93,3
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	132,6	124,1
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	95,8	24,9
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	6,7	9,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	678,4	282,6 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	1557,5	90,5
Hayvonot va o'simlik xom ashyosi	448,6	8,7 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	181,6	37,2
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	99,4	-
Po'kak va yog'och mahsulotlari	1,9	4,7
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1661,7	88,7
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyoviy moddalar	404,1	127,7 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	221,0	-
Bo'yoqlar va taninlar	217,7	125,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	150,8	4,0 m.
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	109,4	4,8 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	78,7	108,1
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	75,2	98,6
Organik kimyoviy vositalar	3,0	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	53442,0	104,6
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	8503,3	3,3 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	551,9	33,8
Boshqa metall buyumlar	186,0	4,6
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,2	74,7
Rangli metallar	4,7	-
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	2,9	21,2
Rezina buyumlar	2,6	2,9 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	151,2	375,1 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	126,2	3,0 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	48,4	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	30,9	-
Avtomobil va ularning ehtiyot qismlari	20,0	19,0
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalar	6,2	-
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	1,3	-
Metallni qayta ishlash uskunalar	0,04	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	18087,7	138,7
Oyoq kiyimlari	2934,1	9,3 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	910,7	34,3 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	447,9	99,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	405,5	107,9
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunalar uchun armature	27,5	42,3 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	15,4	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar va optik mahsulotlar	9,3	37,6 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlarga **94,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **58,0** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **85,9** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	40,7	40,5	135,9	99,3	1	1
Pokiston	3,4	34,9	2,3 m.	10,1 m.	6	2
Qirg'iziston	15,8	26,0	74,8	164,6	4	3
Tojikiston	1,2	13,3	46,7	10,9 m.	12	4
Qozog'iston	25,2	11,0	2,6 m.	43,5	2	5
Turkiya	18,9	9,0	142,1	47,3	3	6
Xitoy	5,8	5,1	45,6	87,8	5	7
Eron	1,6	5,1	100,2	3,3 m.	9	8
Polsha	0,5	2,7	103,3	5,6 m.	18	9
Koreya Respublikasi	0,2	2,4	48,5	12,5 m.	24	10
Turkmaniston	2,6	1,7	66,7	65,9	7	11
Iroq	0,4	1,4	152,6	3,2 m.	19	12
Belarus	1,1	1,4	2,4 m.	127,9	13	13
Chexiya	0,0	1,2	136,7 m.	32,2 m.	29	14
Litva	0,0	0,9	387,3 m.	17,7 m.	28	15
Hindiston	0,1	0,8	88,7	6,9 m.	26	16
Gruziya	0,8	0,8	156,3	97,9	15	17
AQSH	0,1	0,5	8,8	5,3 m.	27	18
Germaniya	1,4	0,5	5,7 m.	34,1	11	19
Vyetnam	0,5	0,3	2,8 m.	60,4	16	20







## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)\*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>162,7</b>	<b>128,3</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	15,7	114,3	9,6
Xiva sh.	7,0	110,5	4,3
Bog'ot	14,6	108,0	9,0
Gurlan	12,9	3,1 m.	8,0
Qo'shko'pir	2,5	30,9	1,6
Urganch	14,7	128,4	9,0
Hazorasp	16,5	178,0	10,2
Tuproqqal'a	8,3	169,7	5,1
Xonqa	16,0	106,8	9,8
Xiva	7,5	84,7	4,6
Shovot	15,9	108,9	9,8
Yangiariq	14,9	2,1 m.	9,1
Yangibozor	14,5	182,9	8,9

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Hazorasp tumani **10,2** % bilan **16,5** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **1,6** % bilan **2,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida **63,3** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **26,9** foizga yoki **23,3** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**52,1** %), Rossiya (**34,3** %), Qozog'iston (**10,7** %) hamda Polsha (**0,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **56,8 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **50,1** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **34,9** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI

(2023- yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	6122,4	29554,1	52,1
 Rossiya Federatsiyasi	25559,0	19491,0	34,3
 Qozog'iston	29675,0	6085,9	10,7
 Polsha	471,0	386,1	0,7
 Eron	212,0	271,6	0,5
 Afg'oniston	314,3	222,0	0,4
 Turkiya	84,5	215,0	0,4
 BAA	71,8	162,0	0,3
 Turkmaniston	393,9	144,0	0,3
 Ukraina	191,2	105,7	0,2
 Boshqa davlatlar	241,8	137,0	0,2

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **52,1** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **51,6** foizga ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha **42,1 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **25,9 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **34,5 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**42,4 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **142** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **18** ta davlatiga eksport qilindi.

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil
<b>Jami:</b>	<b>64,2</b>	<b>42,1</b>
 Paxtadan yigirilgan ip	43,1	-
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	12,9	17,8
 Naqshli mato	0,3	0,7
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1,7	2,9
 Paxtadan gazlamalar	4,6	10,4
 Ipak va ipak mahsulotlari	0,8	4,9
 Paxta mahsulotlari	0,8	2,4
 Gilamlar	0,1	3,0





## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Qirg‘iz Respublikasi	9,3	15,4	165,4
 Tojikiston	-	10,6	-
 Rossiya Federatsiyasi	20,2	7,2	35,8
 Qozog‘iston	4,3	2,5	58,9
 Koreya Respublikasi	-	2,3	-
 Chexiya	-	1,2	-
 Belarus	0,9	0,8	83,5
 XXR	5,7	0,5	9,1
 Germaniya	1,3	0,4	30,8
 Vyetnam	0,5	0,3	60,3
 Boshqa davlatlar	22,1	0,9	4,2




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**36,5 % – 15,4 mln. AQSH dollari**) va Tojikiston (**25,1 % – 10,6 mln. AQSH dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **6,7** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **4,1** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **24,0** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**39,5** %), transport (**33,5** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**9,9** %) va boshqa xizmatlar (**17,1** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




## XORAZM VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **292,5** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,1** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**41,3** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,7** %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**7,9** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **42,8** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **292,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>249,7</b>	<b>292,5</b>	<b>126,4</b>	<b>117,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	82,8	107,4	113,3	129,7	33,2	36,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	454,2	56,2	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,1	23,1	129,8	134,7	6,9	7,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,0	5,8	216,0	194,5	1,2	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	1,6	164,7	126,7	0,5	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	13,4	11,3	145,4	84,5	5,4	3,9
Sanoat tovarlari	20,2	14,9	231,3	73,8	8,1	5,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	100,6	120,7	197,8	120,0	40,3	41,3
Turli xil tayyor buyumlar	11,3	7,7	28,0	68,1	4,5	2,6



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	98649,0	126,8
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	4251,9	3,8 m.
Don va ularning mahsulotlari	2117,4	2,4 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1364,7	75,7
Sabzavotlar va mevalar	405,6	195,9
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	258,0	166,0
Har xil ovqatlar va preparatlar	228,5	2,4 m.
Tirik hayvonlar	112,5	17,6
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	50,6	56,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Yog'och mahsulotlari	21099,3	146,0
To'qimachilik tolalari	1789,9	3,1 m.
Tabiiy kauchuk	65,2	40,5
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	56,1	3,3
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	38,4	-
Qog'oz xamiri va makulatura	5,7	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	18,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5412,2	2,6 m.
Ko'mir, koks va briketlar	368,7	41,9
<b>Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	1617,9	126,7
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4443,6	143,3
O'g'itlar	2944,8	40,4
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1036,6	3,2 m.
Bo'yoqlar va taninlar	908,1	116,4
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	676,5	3,1 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	621,4	2,1 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	315,2	51,3
Noorganik kimyoviy moddalar	215,1	35,9
Organik kimyoviy moddalar	142,6	86,3




XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	3801,3	2,1 m.
Metall buyumlar	2815,1	31,2
To'qimachilik iplari, matolar	2619,7	139,9
Quyma temir va po'lat	2100,5	48,8
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	1632,4	103,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1159,4	90,5
Rezina buyumlar	694,3	2,7 m.
Rangli metallar	90,8	2,4 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	72966,9	137,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	17420,5	2,6 m.
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	16012,6	181,1
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	8760,9	80,8
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	4499,6	23,5
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	537,1	92,6
Metallni qayta ishlash mashinalari	383,5	35,5
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	111,3	83,8
Boshqa transport vositalari	25,5	879,3 m.
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	3631,7	45,2
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	1905,9	70,9
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	1404,3	4,3 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	630,2	5,5 m.
Oyoq kiyimlari	76,1	90,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	17,7	91,0
Kiyim va kiyim aksessuarlari	10,7	146,6
Sayohat aksessuarlari va sumkalar	2,5	176,5

2023- yil yanvar-iyun oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **18,9 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **17,1 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati **47** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Belarus va Qozog'iston) jami importning **82,8** foizini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	77,8	95,3	125,5	122,6	1	1
XXR	47,7	52,0	89,6	108,9	3	2
Rossiya Federatsiyasi	31,5	32,4	164,8	102,9	4	3
Turkiya	59,5	25,1	2,8 m.	42,2	2	4
Germaniya	3,8	19,1	113,9	5,0 m.	6	5
Belarus	1,2	11,9	121,5	10,2 m.	13	6
Qozog'iston	9,1	6,2	2,2 m.	68,3	5	7
Eron	1,6	6,0	61,4	3,6 m.	11	8
Yaponiya	0,1	4,6	97,1	65,7 m.	32	9
Shveysariya	0,6	4,6	6,7 m.	8,0 m.	16	10
Turkmaniston	3,4	4,0	152,0	116,4	7	11
BAA	0,1	4,0	-	77,0 m.	34	12
Finlyandiya	-	3,7	-	-	-	13
Polsha	3,4	3,6	2,7 m.	108,1	8	14
Belgiya	0,4	3,6	2,3 m.	8,6 m.	18	15
Litva	1,6	3,1	133,3	190,7	10	16
Koreya Respublikasi	2,0	2,3	13,3	119,3	9	17
Italiya	0,1	1,7	45,7	11,8 m.	26	18
Gongkong	0,5	1,3	155,1	2,8 m.	17	19
Bangladesh	0,8	1,2	80,5	160,0	15	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-iyun)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>292,5</b>	<b>117,1</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	60,7	105,9	20,7
Xiva sh.	7,9	103,3	2,7
Bog'ot	5,1	139,8	1,7
Gurlan	4,7	91,7	1,6
Qo'shko'pir	18,6	4,6 m.	6,3
Urganch	12,3	75,6	4,2
Hazorasp	13,7	183,5	4,7
Tuproqqal'a	113,2	134,5	38,7
Xonqa	15,4	2,2 m.	5,3
Xiva	4,9	3,4 m.	1,7
Shovot	20,2	2,1 m.	6,9
Yangiariq	13,9	32,0	4,8
Yangibozor	2,0	73,6	0,7

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Tuproqqal'a** 113,2

**Urganch sh.** 60,7

**Shovot** 20,2

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Yangibozor** 2,0

**Gurlan** 4,7

**Xiva** 4,9

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **38,7 %** bilan **113,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Yangibozor tumani hissasiga **0,7 %** bilan **2,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **120,7** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **20,0** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **41,3** %ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,1** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **46,8** mln. AQSH dollari (**38,8** %), Turkiya — **17,6** mln. AQSH dollari (**14,5** %) va Germaniya - **16,4** mln. AQSH dollari (**13,6** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.






## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **14,9** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,2** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **5,1** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

3,1 mln. AQSH doll,  
ulushi – 20,8 %




**Rossiya  
Federatsiyasi**

2,2 mln. AQSH doll,  
ulushi – 14,7 %



**Turkiya**

2,1 mln. AQSH doll,  
ulushi – 14,1 %



**Xitoy Xalq  
Respublikasi**

1,5 mln. AQSH doll,  
ulushi – 10,2



**Belarus**

1,4 mln. AQSH doll,  
ulushi – 9,3



**BAA**



Sanoat mahsulotlari importi asosan yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**3,8** mln. AQSH dollari), metal buyumlar (**2,8** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**2,6** mln. AQSH dollari), quyma temir va po'lat (**2,1** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**1,6** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.